

“Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi: muammolar va innovatsion yechimlar” nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o‘tkazildi

Joriy yil 12-sentyabr kuni Fanlar akademiyasi Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti tomonidan “Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi: muammolar va innovatsion yechimlar” nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi.





Unda qishloq xo'jaligi sohasida ko'zga ko'ringan yetakchi olimlar, akademiklar, oliy ta'lim vazirligi vakillari, talaba-magistrlar, doktorantlar ishtirok etdi.





Konferensiya kun tartibida o'simliklar genetikasida qo'llaniladigan zamonaviy genom texnologiyalar, qishloq xo'jaligi ekinlari kasalliklarining molekulyar-biologik diagnostikasi, dukkakli va moyli ekinlar genetikasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar natijalari, bahorgi va kuzgi bug'doy navlari hosildorligini oshirishda zamonaviy usullardan foydalanish kabi bir-biridan qiziqarli ma'ruzalar tinglandi va muhokama qilindi.

Konferensiya muhokamasiga qo'yilgan mavzular muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ularning yechimi O'zbekiston qishloq xo'jaligining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.